



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “24” iyun

BUYRUQ № 43

Toshkent sh.

**“Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha
uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qaroriga muvofiq, buyuraman:

1. Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 30- noyabrdagi “Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 43-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2023- yil 27- iyundagi 43- sonli
buyrug‘iga
ILOVA**

**Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha
uslubiy nizom**

Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom (keyingi o‘rinlarda - Uslubiy nizom) qurilish faoliyati natijasida barpo etilgan bino va inshootlar, turli faoliyat turlari bo‘yicha quvvatlar hamda obyektlarni foydalanishga topshirilishi to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni shakllantirish tartibini belgilab beradi.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o‘rinlarda-GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomni tayyorlashda qurilish faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, “Milliy hisoblar tizimi – 2008” qo‘llanmasi ta‘riflari va ayrim davlatlar tajribalaridan foydalanildi.

Ushbu Uslubiy nizom statistika organlari tomonidan foydalanishga topshirilgan quvvatlar va obyektlar bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni shakllantirishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPM ning qayta ishlash bosqichi doirasida ma‘lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

2-bob. Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarining statistik hisobi

2. Tayyor qurilish mahsulotlari qurilishi tugallangan va belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgan hamda boshqa joyga ko‘chirishda asosiy xususiyatlarga zarar yetkazmasdan ko‘chirishning iloji bo‘lmagan turar

va noturar joy binolari, inshootlar, barcha turdagi faoliyat turlari obyektlari va quvvatlarini o'z ichiga oladi.

3. Binolar funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo'ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi hisoblanadi.

4. Binolar funksional foydalanish maqsadiga ko'ra turar va noturar joy binolariga bo'linadi:

- turar-joylar uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan, kamida yarim qismi odamlarni doimiy yashashiga mo'ljallangan, barcha yordamchi inshootlar va obodonlashtirish elementlari joylashgan ma'lum chegaralar bilan belgilangan yer maydonida joylashgan binodan tashkil topadi. Turar joylarga uy-joylar va doimiy turdagi yotoqxonalar, nogironlar uchun internat uylar, yolg'iz qolgan qariyalar va bolalar uylari kiradi. Turar joylar hisobiga fuqarolarning yashash muddatidan qat'iy nazar mavsumiy yoki vaqtincha yashash uchun mo'ljallangan binolar kirmaydi;

- noturar joylarga mehnat qilish uchun sharoitlar yaratish, aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish, moddiy boyliklarni saqlash va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan binolar kiradi.

5. Inshootlar har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarni saqlashga, odamlarning vaqtincha bo'lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarni olib o'tishga mo'ljallangan, tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziqli tarzidagi yer tepasida, yer yuzasida va yer ostida joylashgan qurilish tizimidan tashkil topadi. Inshoot sifatida qabul qilinadigan obyekt, uning ajralmas qismlari hisoblangan barcha qurilmalarini qo'shgan holda har qanday alohida inshoot bo'lishi mumkin. Misol uchun, belgilangan chegaralardagi avtomobil yo'li, yer usti istehkomlari, ustki qoplama va yo'l sharoitlari (yo'l belgilari va hokazo), to'siqlar, harakatlanish joylari, suv oqovalari, uzunligi 10 metrdan ko'p bo'lmagan ko'priklarni ham o'z ichiga oladi.

6. Shuningdek, quyidagilar ham inshoot sifatida ko'riladi:

- qurilishi tugallangan energiya va axborot uzatishga mo'ljallangan qurilmalar (elektr uzatish, markazlashgan issiqlik uzatish liniyalari, turli maqsadlarga mo'ljallangan quvur tarmoqlari, aloqaning kabel liniyalari);

- maxsus aloqa tizimlari inshootlari va boshqa qator obyektlar, o'rindosh muhandislik ta'minoti majmualarini qo'shgan holda;

- aholi yashash joylari va shaharlararo hududlarning barqaror rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi boshqa muhandislik-transport infratuzilmasi obyektlari.

3-bob. Tayyor qurilish mahsulotlari ko'rsatkichlarini hisoblashning ma'lumotlar manbalari

7. Tayyor qurilish mahsulotlari to'g'risida yilda bir marta aniq ma'lumotlar quyidagi statistika hisoboti va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi:

- a) 1 invest (asosiy) shakli (yillik) "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot" – barcha iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, qurilish xo'jalik boshqaruv organlarini qo'shgan holda (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklaridan, notijorat tashkilotlardan tashqari) taqdim etadilar;

- b) 1 kb (qurilish) shakli (yillik) "Obyektlar, quvvatlarni ishga tushirish va ularning qurilishiga yo'naltirilgan investitsiyalardan foydalanish to'g'risida hisobot" – bino va inshootlar qurilishiga investitsiyalarni amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar taqdim etadilar;

- d) 1 qurilish (jismoniy) shakli (yillik) "Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda qurilgan turar joylarni va noturar binolarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot" – davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari taqdim etadilar;

- e) 4 tj so'rovnomasi (choraklik) "Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joyni tanlama kuzatuv so'rovnomasi"- statistika organlari tomonidan o'tkaziladigan kuzatuv.

8. Tayyor qurilish mahsulotlari to'g'risidagi choraklik ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotlar asosida shakllanadi:

- a) 4 invest (asosiy) shakli (choraklik) "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot" - barcha iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, qurilish xo'jalik boshqaruv organlarini qo'shgan holda (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklardan, notijorat tashkilotlardan tashqari) taqdim etadilar;

b) 4 qurilish (jismoniy) shakli (choraklik) “Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda qurilgan turar joylarni va noturar binolarni foydalanishga topshirish to‘g‘risida hisobot” - davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari taqdim etadilar;

d) 4qurilish (ijtimoiy soha) shakli (choraklik) “Ijtimoiy soha obyektlari qurilishi to‘g‘risida hisobot” – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimiyatlari, Toshkent shahar injiniring kompaniyalari va boshqa yuridik shaxslar Statistika agentligi tomonidan belgilangan ro‘yxat asosida) taqdim etadilar.

4-bob. Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish

9. Statistika hisoboti shakllarida ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasiga asoslanib ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

10. Turar joy qurilishi bo‘yicha ishga tushirilgan asosiy fondlar, investitsiyalar va qurilish-montaj ishlari tarkibiga turar joylar yoniga, ichiga qurilgan savdo, umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish (asbob-uskuna, uning montaj ishlari va ushbu tashkilotlar uchun binoga pardoz berish qiymatidan tashqari) tashkilotlarini joylashtirish uchun mo‘ljallangan noturar binolarning qiymatini qo‘shgan holda hisob-kitob qilinadi.

11. Ishga tushirilgan xonadonlar va yotoqxonalarning umumiy maydoni, ularning xonalari, omborlar, o‘rnatilgan javonlari, shuningdek, yozgi xonalar va sovuq omborlar, peshayvonlari, bolaxona va ayvonlar maydonlari yig‘indisi sifatida hisoblanadi. Yotoqxonalar va internat uylarining umumiy maydoni esa qo‘shimcha xonalar va jamoat uchun mo‘ljallangan xonalar, shuningdek, yozgi xonalar turar joy xonalari maydoni yig‘indisi sifatida aniqlanadi. Qo‘shimcha va jamoat uchun mo‘ljallangan xonalarga xollar, vestibyul, shaxsiy buyumlar, sport va xo‘jalik anjomlari saqlanadigan xonalar, oshxona, bufet, dam olish, madaniy-ommaviy tadbirlar, maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari kiradi.

12. Fuqarolik ahamiyatiga ega bo‘lgan turar joy obyektlarini, seksiyalar bo‘yicha foydalanishga topshirish hollarida esa, binolar soni obyekt qurilishi tugallanib, foydalanishga topshirilgandan so‘ng qo‘yiladi. Mavjud obyektlarga tashqi qurilmalar umumiy obyekt (bino)dan farqli funksiyaga mo‘ljallangan

hollardagina ular alohida bino sifatida hisobga olinadi. Issiqlik qozonxonalarining alohida turgan binolari, shuningdek, hovlidagi imoratlar (omborxonalar, garajlar) mustaqil obyektlar hisoblanadi.

Qo'shib qurilgan binolar va do'kon, oshxona, sartaroshxona, atel'ye va hokazolarga mo'ljallangan binolar, boshqa maqsadda qurilgan bo'lsada, asosiy bino tarkibiga kiradi. Agar binolar bir-biriga yopishgan va umumiy devorga ega, ammo ularning har biri mustaqil konstruksiyaga ega bo'lsa, ular alohida binolar deb hisoblanadi va mos ravishda hisobga olinadi.

13. Ishga tushirilgan turar-joylar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning qavatlilik, asosiy devor material turi va joylashtirilgan xonalar soni bo'yicha guruhlarga ajratiladi.

14. Turar joylarni ishga tushirish ko'rsatkichlari tarkibida, ishga tushirilgan turar joylar soni bilan bir qatorda, xonadonlar soni ham hisob-kitob qilinadi. Xonadon deganda, doimiy yashash uchun foydalaniladigan va jihozlangan, boshqa turar joy xonalaridan ajratilgan hamda o'zi uchun alohida zinaxonaga, umumiy yo'lakka yoki bevosita tashqariga chiqish imkoni mavjud xonalar tushuniladi.

15. Noturar joylarni ishga tushirish kommunal xo'jalik, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta'minot, sayyohlik, ta'lim, madaniyat va san'at, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, shuningdek, boshqa ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini ishga tushirish ko'rsatkichlaridan tashkil topadi.

16. Suv quvurlarining ishga tushirilishi ikkita o'lchov birligida ko'rsatildi:

- suv quvuri quvvati, ming kub.m. sutkada (suv berishni aniqlovchi suv quvuri inshootining o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqqan holda);

- suv o'tkazgichlar va ko'cha tarmoqlarining uzunligi, kilometrda (suv o'tkazgich va tarmoqlarning umumiy uzunligi bir chiziqda yotqizilgan hamma quvurlar uzunligi bo'yicha birlamchi hisobda aniqlanadi, agar quvurlar bir necha qatorda yotqizilgan bo'lsa, unda uzunlik hamma qatorlarning umumiy uzunligi bo'yicha aniqlanadi).

17. Kanalizatsiya obyektlari bo'yicha tozalash inshootlari, suv o'tkazish stansiyalari, ko'cha tarmoqlari, kollektorlar va kanalizatsiyaning boshqa obyektlarini ishga tushirish bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi. Kanalizatsiya obyektlarini ishga tushirish bo'yicha uylardan chiqariladigan tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlar kiritilmaydi.

18. Gazlashtirish bo'yicha moliyalashtirishning barcha manbalari, jumladan, aholi mablag'lari hisobidan shaharlar va aholi punktlariga qurilgan gaz tarqatish stansiyalaridan chiquvchi gaz quvurlarini ishga tushirish bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi. Gaz tarmoqlari uzunligi birlamchi hisobda, ya'ni bir yo'nalishda belgilanadi.

19. Issiqlik ta'minoti bo'yicha shahar magistral va tarqatilish issiqlik tarmoqlari, issiqlik punktlari, tuman isitish o'choqlari va issiqlik ta'minotining boshqa obyektlarini ishga tushirish bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi.

20. Ishga tushirilgan kasalxonalar bo'yicha davolash muassasalari, jumladan, davolash koykalariga ega bo'lgan gospitalar, tug'ruqxonalar, oliy o'quv yurtlari klinikalari, poliklinikalarning statsionarlari, tumanlardagi tibbiyot uyushmalari, dispanserlar, tibbiyot-sanitariya qismlari va tibbiyot koykalariga ega bo'lgan boshqa muassasalar aks ettiriladi.

21. Ishga tushirilgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari smenada qatnovchilar soni ko'rsatkichi bo'yicha hisob-kitob qilinib, ularga davolash muassasalari, dispanserlar, tibbiyot-sanitariya qismlari, ambulatoriyalar, tumanlardagi tibbiyot uyushmalari, ayollar va bolalar tibbiy maslahat markazlari kiradi. Shuningdek, ishga tushirilgan qishloq vrachlik punktlari bo'yicha ham bir smenadagi qatnov soni ko'rsatkichi hisoblanadi.

22. Shuningdek, sog'liqni saqlash obyektlari tarkibiga, aholiga bevosita tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sog'liqni saqlash obyektlarining tibbiyot muassasalari ham kiritiladi. Misol uchun, sanepidemstansiyalar, qon quyish stansiyalari, karantin stansiyalari, sudmed ekspertiza obyektlari va boshqalar.

23. Boshqa obyektlar bo'yicha davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirishda qatnashuvchi davlat ehtiyoji uchun korxonalar va obyektlar, butlovchi import asbob-uskunalar negizida amalga oshiriladigan barcha obyektlar, oziq ovqat va nooziq-ovqat xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha korxona va obyektlar, shuningdek, yarim tayyor mahsulotlar, ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun kerakli qismlar, detallar va butlovchi buyumlar, jumladan, elektr maishiy asboblari, tikuv va trikotaj buyumlari, gazlamalar, televizorlar, magnitofonlar, sovutgichlar va boshqalar, umumtovar omborlari, kartoshka, meva va sabzavotlar uchun omborlarni qo'shgan holda, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda mayda chakana savdo

tarmoqlarini qo'shgan holda boshqa savdo obyektlarini ishga tushirilishida, obyektlarning loyiha quvvati asosida ma'lumotlar aks ettiriladi.

Tayyor qurilish mahsulotlari ko'rsatkichlarini shakllantirish sxemasi ilovada keltirilgan.

5-bob. Tayyor qurilish mahsulotlari ko'rsatkichlarini fizik hajm indeksini hisoblash

24. Tayyor qurilish mahsulotlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish va dinamik qatorlarni tuzish uchun nisbiy ko'rsatkich – tayyor qurilish mahsulotlari **fizik hajm indeksi** qo'llaniladi.

25. Tayyor qurilish mahsulotlari fizik hajm indeksini hisoblash taqqoslanayotgan davrlardagi natura ko'rinishidagi ko'rsatkichlarni solishtirish yo'li bilan quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$If.o. = \frac{v_1}{v_0} * 100, \quad (1)$$

bu yerda,

$I_{f.o}$ – fizik hajm indeksi, % da;

V_1 - hisobot davri tegishli davri uchun ishga tushirilgan tayyor qurilish mahsulotlari;

V_0 –o'tgan yilning tegishli davri uchun ishga tushirilgan tayyor qurilish mahsulotlari.

Masalan,

2022-yilning yanvar-mart oylarida 1100 ta o'quvchi o'ringa mo'ljallangan maktablar ishga tushirildi. O'tgan yilning tegishli davrida, yani 2021-yil yanvar-mart oylarida 990 ta o'quvchi o'ringa mo'ljallangan maktablar ishga tushirilgan. Ishga tushirilgan maktablarda o'quvchi o'rinlari soni 11,1 % ga ko'payganligi hisob-kitob qilinadi:

$$If.o. = \frac{1100}{990} * 100$$

bu yerda,

111,1 – 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishga tushirilgan maktablarda o‘quvchi o‘rinlari sonining fizik hajm indeksi, % da;

1100 - 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishga tushirilgan maktablardagi o‘quvchi o‘rni;

990 –o‘tgan yilning tegishli davrida ishga tushirilgan maktablarning o‘quvchi o‘rni.

6-bob. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

27. Tayyor qurilish mahsulotlari - belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilingan (ShNQ (Shahrsozlik normalari va qoidalari) 3.01.04-19 “Qurilish tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish”), ushbu shaharsozlik normalari va qoidalari qurilishi tugallangan (qayta qurilgan, kengaytirilgan, modernizatsiya qilingan, texnik qayta jixozlangan) obyektlarni (korxonalarni, ularning ayrim qismlarini, ishga tushurish komplekslarini, bino va inshootlarni) foydalanishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

28. Ushbu normativ huquqiy hujjatda qurilish jarayonida yuzaga keladigan barcha jarayonlarga huquqiy yechim ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, tomonlarning ma’sulyatlari, ishchi hay’atlarning huquq va majburiyatlari va ishlash tartibi, davlat qabul hay’atlarining huquqi, vazifasi va ishlash tartibi, mulkchilikning boshqa shakllariga qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish hamda qurilishning joriy narxlardagi shartnomaviy qiymatini yopish kabi jarayonlar o‘z ichiga olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi // Toshkent, 2002.
2. Методологические положения по статистике. Вып. // Федеральная служба государственной статистики России // М., 2006.
3. Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ 3.01.04-19) Qurilish tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish // Tashkent, 2020.
4. Система национальных счетов – 2008 // Европейская комиссия, Международный валютный фонд, Организация экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций, Всемирный банк // Нью-Йорк, 2012.

“Tayyor qurilish mahsulotlari
ko‘rsatkichlarini shakllantirish
bo‘yicha uslubiy nizom”ga
Ilova

Tayyor qurilish mahsulotlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish sxemasi

